



New Day in Medicine
Новый День в Медицине

NDM



TIBBIYOTDA YANGI KUN

Ilmiy referativ, marifiy-ma'naviy jurnal



AVICENNA-MED.UZ



ISSN 2181-712X.
EiSSN 2181-2187

5 (55) 2023

**Сопредседатели редакционной
коллегии:**

**Ш. Ж. ТЕШАЕВ,
А. Ш. РЕВИШВИЛИ**

Ред. коллегия:

М.И. АБДУЛЛАЕВ
А.А. АБДУМАЖИДОВ
А.Ш. АБДУМАЖИДОВ
Р.Б. АБДУЛЛАЕВ
М.М. АКБАРОВ
Х.А. АКИЛОВ
М.М. АЛИЕВ
С.Ж. АМИНОВ
Ш.Э. АМОНОВ
Ш.М. АХМЕДОВ
Ю.М. АХМЕДОВ
Т.А. АСКАРОВ
Ж.Б. БЕКНАЗАРОВ (главный редактор)
Е.А. БЕРДИЕВ
Б.Т. БУЗРУКОВ
Р.К. ДАДАБАЕВА
М.Н. ДАМИНОВА
К.А. ДЕХКОНОВ
Э.С. ДЖУМАБАЕВ
А.Ш. ИНОЯТОВ
С. ИНДАМИНОВ
А.И. ИСКАНДАРОВ
С.И. ИСМОИЛОВ
Э.Э. КОБИЛОВ
Д.М. МУСАЕВА
Т.С. МУСАЕВ
Ф.Г. НАЗИРОВ
Н.А. НУРАЛИЕВА
Б.Т. РАХИМОВ
Ш.И. РУЗИЕВ
С.А. РУЗИБОВЕВ
С.А. ГАФФОРОВ
С.Т. ШАТМАНОВ (Кыргызстан)
Ж.Б. САТТАРОВ
Б.Б. САФОВЕВ (отв. редактор)
И.А. САТИВАЛДИЕВА
Д.И. ТУКСАНОВА
М.М. ТАДЖИЕВ
А.Ж. ХАМРАЕВ
А.М. ШАМСИЕВ
А.К. ШАДМАНОВ
Н.Ж. ЭРМАТОВ
Б.Б. ЕРГАШЕВ
Н.Ш. ЕРГАШЕВ
И.Р. ЮЛДАШЕВ
Д.Х. ЮЛДАШЕВА
А.С. ЮСУПОВ
М.Ш. ХАКИМОВ
К.А. ЕГЕЗАРЯН (Россия)
DONG JINCHENG (Китай)
КУЗАКОВ В.Е. (Россия)
Я. МЕЙЕРНИК (Словакия)
В.А. МИТИШ (Россия)
В.И. ПРИМАКОВ (Беларусь)
О.В. ПЕШИКОВ (Россия)
А.А. ПОТАПОВ (Россия)
А.А. ТЕПЛОВ (Россия)
Т.Ш. ШАРМАНОВ (Казахстан)
А.А. ЩЕГОЛОВ (Россия)
Prof. Dr. KURBANHAN MUSLUMOV (Azerbaijan)
Prof. Dr. DENIZ UYAK (Germany)

www.bsmi.uz

<https://newdaymedicine.com>

E: ndmuz@mail.ru

Тел: +99890 8061882

**ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН
НОВЫЙ ДЕНЬ В МЕДИЦИНЕ
NEW DAY IN MEDICINE**

Илмий-рефератив, маънавий-маърифий журнал

Научно-реферативный,

духовно-просветительский журнал

УЧРЕДИТЕЛИ:

**БУХАРСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
МЕДИЦИНСКИЙ ИНСТИТУТ
ООО «ТИББИЁТДА ЯНГИ КУН»**

Национальный медицинский
исследовательский центр хирургии имени
А.В. Вишневского является генеральным
научно-практическим
консультантом редакции

Журнал был включен в список журнальных
изданий, рецензируемых Высшей
Аттестационной Комиссией
Республики Узбекистан
(Протокол № 201/03 от 30.12.2013 г.)

РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ:

М.М. АБДУРАХМАНОВ (Бухара)
Г.Ж. ЖАРЫЛКАСЫНОВА (Бухара)
А.Ш. ИНОЯТОВ (Ташкент)
Г.А. ИХТИЁРОВА (Бухара)
Ш.И. КАРИМОВ (Ташкент)
У.К. КАЮМОВ (Тошкент)
Ш.И. НАВРУЗОВА (Бухара)
А.А. НОСИРОВ (Ташкент)
А.Р. ОБЛОКУЛОВ (Бухара)
Б.Т. ОДИЛОВА (Ташкент)
Ш.Т. УРАКОВ (Бухара)

5 (55)

2023

май

Received: 20.04.2023, Accepted: 30.04.2023, Published: 10.05.2023.

UDK 613.6.02:613.63-64:614.254

TIBBIYOT XODIMLARINING SOG'LIG'IGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR VA KASB KASALLIKLARINING KELIB CHIQISH SABABLARI

Abdullayev G'oyibsher Abdulxamidovich <https://orcid.org/0000-0003-1232-5577>
Ashurova Manzura Jaloldinovna Email: sherhan1991big@mail.ru

Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti O'zbekiston Farg'ona viloyati, Farg'ona shahri, Yangi Turon ko'chasi No2-A Tel: +998 (73) 243-06-62 Email: info@fjsti.uz

✓ Rezyume

Mehnat vazifasini bajarish chog'ida tibbiyot xodimlari organizmga bir qator omillar salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shifoxonadagi o'ziga xos mehnat sharoiti, xavfsizlik qoidalariga to'liq rioya qilmaslik, patogen mikroorganizmlar ta'siri, ish joyida yorug'lik va ventilyatsiyani yetarli darajada emasligi va boshqa ko'plab omillar kasb kasalliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. Og'ir mehnat sharoiti, ijtimoiy-iqtisodiy mas'uliyat, tibbiyotda kuzatiladigan nostandart holatlar ishchi xodimlarning psixologik va jismoniy farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi va hozirgi kunda gipertoniya, yurak-qon tomir kasalliklari va oshqozon-ichak traktining kasalliklari tobora ko'payib bormoqda. Ilmiy izlanish davomida biologik va kimyoviy omillar yetakchi ekanligi aniqlandi. Tibbiyot xodimlari orasida noto'g'ri turmush tarzi, tamaki va spirtli ichimlik mahsulotlarini iste'mol qilish kabi holatlarning uchrashi achinarlidir.

Kalit so'zlar: kasb kasalligi, zararli omillar, mehnat sharoiti, tibbiyot xodimlari, sog'liqni saqlash, sanitar-gigiyenik, gigiyenik baholash.

ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ЗДОРОВЬЕ МЕДИЦИНСКИХ РАБОТНИКОВ И ПРИЧИНЫ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ

Абдуллаев Гойибшер Абдулхамидович <https://orcid.org/0000-0003-1232-5577>
Ашурова Манзура Джалолдиновна Электронная почта: sherhan1991big@mail.ru

Ферганский медицинский институт общественного здоровья, Узбекистан Ферганская область, город Фергана, улица Янги Турон №2-А Тел: +998(73)243-06-62 Email: info@fjsti.uz

✓ Резюме

Ряд факторов оказывает негативное влияние на организм медицинских работников в процессе их работы. Специфические условия труда в стационаре, несоблюдение правил техники безопасности, влияние патогенных микроорганизмов, недостаточное освещение и вентиляция на рабочем месте и многие другие факторы обуславливают возникновение профессиональных заболеваний. Тяжелые условия труда, социальная и экономическая ответственность, нестандартные ситуации, наблюдаемые в медицине, отрицательно сказываются на психологическом и физическом самочувствии работающих, и в настоящее время все больше возрастает гипертоническая болезнь, сердечно-сосудистые заболевания и заболевания желудочно-кишечного тракта. В ходе научных исследований установлено, что ведущими являются биологические и химические факторы. К сожалению, среди медперсонала есть случаи неправильного образа жизни, употребления табака и алкогольных напитков.

Ключевые слова: профессиональное заболевание, вредные факторы, условия труда, медицинский персонал, здравоохранение, санитарно-гигиеническая, гигиеническая оценка.

FACTORS AFFECTING THE HEALTH OF MEDICAL WORKERS AND CAUSES OF OCCUPATIONAL DISEASES

Abdullayev Goyibsher Abdulkhamidovich <https://orcid.org/0000-0003-1232-5577>
Ashurova Manzura Jaloldinovna Email: sherhan1991big@mail.ru

Fergana Medical Institute of Public Health Uzbekistan Fergana region, Fergana city, Yangi Turon street No. 2-A Tel: +998 (73) 243-06-62 Email: info@fjsti.uz

✓ Resume

A number of factors have a negative effect on the body of medical workers during their work. Specific working conditions in the hospital, non-observance of safety rules, the influence of pathogenic microorganisms, insufficient lighting and ventilation in the workplace and many other factors cause the occurrence of occupational diseases. Hard working conditions, social and economic responsibility, non-standard conditions observed in medicine have a negative effect on the psychological and physical well-being of workers, and nowadays hypertension, cardiovascular diseases and diseases of the gastrointestinal tract are increasing more and more. is going During the scientific research, it was found that biological and chemical factors are leading. It is unfortunate that there are cases of improper lifestyle, consumption of tobacco and alcoholic beverages among medical personnel.

Key words: occupational disease, harmful factors, working conditions, medical staff, health care, sanitary-hygienic, hygienic assessment.

Dolzarbligi

Sogʻliqni saqlash xodimlarining ish joylaridagi xavfli omillar haqida kam maʼlumotga ega boʻlishlari har yili turli darajadagi kasallanish holatlarini oshiradi. Tibbiyot xodimlari orasida soʻrovnoma oʻtkazilganida ular oʻzlarining sogʻligʻini yoʻqotishiga sabab: mehnat sharoiti – 38%, moddiy ahvoli – 24%, uyqu yetishmasligi – 12.5%, notoʻgʻri ovqatlanish – 11%, irsiy – 8%, boshqa turli sabablar 6-7%, deb hisoblashadi. Tibbiyot xodimlarning sogʻligʻiga salbiy taʼsir koʻrsatadigan biologik, kimyoviy, fizik va ijtimoiy omillar zararli hisoblanadi [1]. Mehnat sharoitlarini baholashga koʻra, biologik omil zararli omillar ichida yetakchi ekanligi maʼlum va buning sababi quyidagilardan iborat: 1) biotexnologiyaning jadal rivojlanishi, 2) transmissiv infeksiya agentlarining yuqori yuquvchanligi, 3) ayrim texnologik jarayonlarning nomutanosibli, 4) ish joylarida sanitariya-gigiyenik va sanitariya-texnik talablarga rioya qilmaslik, 5) xavfsizlik texnikasini eʼtiborsiz qoldirish.[1,7] Tibbiyot xodimlarining yuqumli kasalliklarning asosiy soni birinchi 5-8 yillik ish faoliyatida qayd etiladi, bu esa ishchi xodimlarning immunitet tizimining yetarlicha qarshiligi va “kompensatsion-adaptiv” mexanizmlarning shaklanmaganligi bilan bogʻliq [3,7]. Tibbiy yordam koʻrsatish jarayoni, tibbiyot xodimlarini turli patogen mikroorganizmlar tomonidan qoʻzgʻatiluvchi yuqumli kasalliklarni yuqtirish xavfini sezilarli darajada oshiradi. Bu bemorning zararlangan biologik suyuqliklari ishchi xodimining shilliq qavatlariga, shuningdek zararlangan tibbiy asboblardan qoʻllaniladigan inyeksiya yoki kesish holatlarida sodir boʻladi [5].

Ilmiy izlanish maqsadi: Yuqumli kasalliklar shifoxonasi ishchi xodimlarining sogʻligʻiga xavf tugʻdiruvchi omillarni sistemali oʻrganish, gigiyenik baho berish va olingan maʼlumotlar asosida barcha omillarni tibbiyot xodimlariga zararli taʼsirini bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqish.

Material va usullar

Ilmiy izlanish davomida sanitar-gigiyenik tekshirish va baholash, statistik tahlil va laborator-instrumental tekshirish usullaridan foydalanildi. Xususan soʻrovnoma oʻtkazishda “Countrywide Integrated Noncommunicable Diseases Intervention Programme” (CINDI) yuqumli boʻlmagan kasalliklarning oldini olish dasturining oʻzgartirilgan soʻrovnomasi ishlatildi.

Natija va tahlillar

Tibbiyot xodimlarining sogʻligʻiga taʼsir koʻrsatadigan ishlab chiqarish muhiti va turmush tarzi bilan bogʻliq xavf omillari Fargʻona viloyatining yuqumli kasalliklar shifoxonasi ishchi xodimlari misolida oʻrganildi, bu yerda 245 ga yaqin shifokorlar va oʻrta tibbiyot xodimlari ishlaydi Har yili ushbu tibbiy tashkilotda Fargʻona viloyati shahar va qishloqlardan 5 mingga yaqin bemor davolanadi.

Muassasaning asosiy boʻlimlariga davolash ichak infeksiyasi, gepatit, havo-tomchi, bakteriologik va biokimyo laboratoriya boʻlimlari kiradi. Davolash xizmat tarkibida holati ogʻir boʻlgan bemorlar uchun jonlantirish boʻlimi mavjud. Kasalxonada diagnostika va bakteriologik laboratoriyalar, sterilizatsiya, patologik boʻlimlar va dorixona mavjud. Koʻpgina yirik koʻp tarmoqli shifoxonalarda boʻlgani kabi, bemorlarning maʼlum qismi shoshilinch koʻrsatmalar boʻyicha ushbu kasalxonaga yotqiziladi.


Muassasadagi tibbiyot xodimlarining ish oʻrinlari soni 245 tani tashkil etadi, shundan 220 va 25 tasi mos ravishda ayollar va erkaklarga toʻgʻri keladi.

Tibbiyot xodimlarining mehnat sharoitlarini baholash uchun tadqiqot bazasidagi barcha tibbiyot xodimlari hisobga olingan, tadqiqot uchun asos bo'lib xizmat qilgan shifoxonada ishlaydigan tibbiyot xodimlari orasida erkak shifokorlarning ulushi 10%, ayollar 90% ni tashkil etdi. O'rta va kichik tibbiyot xodimlarining guruhlari asosan ayollardan iborat. Shifokorlarning o'rta yoshi (YI) 42 yoshni, o'rta tibbiyot xodimlari – 32 yoshni, kichik tibbiyot xodimlari – 45 yoshni tashkil etdi. O'rganilayotgan guruhdagi o'rta tibbiyot xodimlarining tajribasi 14 yil, shifokorlar orasida shunga o'xshash ko'rsatkich 19 dan oshadi va kichik tibbiyot xodimlarida 9 yilni tashkil etadi.

Kasalxona tibbiyot xodimlarining mehnat sharoitlari 2021-yildan 2023-yilgacha o'tkazilgan ishlab chiqarish nazorati natijalariga ko'ra baholandi. Kimyoviy omillarni o'rganish va o'lchash bo'yicha SSV 363-sonli buyrug'i asosida 224-dalolatnoma 2 ta protokol, xonalar havosini o'rganish uchun 1 ta protokol, atrof-muhit obyektlaridan sanitariya indikativ mikroorganizmlar namunalarni o'rganish uchun 5 ta protokol, jismoniy omillar, mehnat jarayonining og'irligi va intensivligini baholash uchun 2 ta protokol o'rganildi. Materiallar Farg'ona viloyat yuqumli kasalliklar shifoxonasi, ma'muriyati tomonidan taqdim etilgan.

1-jadval

Turli faktorlarni jinsga bog'liq holda organizmga ta'siri.



Tadqiqot davomida quyidagi ishlab chiqarish omillari ko'rib chiqildi: kimyoviy (ishchi hudud havosida propanol, izopropanol, formaldegid, xlor, etanol miqdori), biologik (ish yoki patogen biologik vositalar bilan xodimlarning aloqasi), jismoniy (shovqin, mikroiklim, mehnat jarayonining og'irligi). Shaxsiy omillar va ularning kombinatsiyasi bo'yicha mehnat sharoitlarini gigiyenik baholash, mehnat muhiti va mehnat jarayoni omillarini gigiyenik baholash bo'yicha yo'riqnomaga muvofiq amalga oshirildi. Mehnat sharoitlarining mezonlari va tasnifi, mehnat muhiti va mehnat jarayoni omillari parametrlarini o'lchash, mehnat sharoitlari ustidan ishlab chiqarish nazorati sinov laboratoriya markazlari, shu jumladan Farg'ona viloyati SEO va JSX markazi taqdim etgan manbalardan foydalanildi. Kasalxona tibbiyot xodimlarining yuqumli bo'lmagan kasalliklarning xulq-atvori va metabolik xavf omillariga ta'sir qilish to'g'risida ma'lumot olish uchun Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining "Countrywide Integrated Noncommunicable Diseases Intervention Programme" (CINDI) yuqumli bo'lmagan kasalliklarning oldini olish dasturining o'zgartirilgan so'rovnomasi ishlatildi. 200 ta tibbiyot xodimi bilan suhbat o'tkazildi. Respondentlarning javoblarini baholash JSST tomonidan ishlab chiqilgan "aholining yuqumli bo'lmagan kasalliklari uchun xulq-atvor xavf omillarini monitoring qilish" qo'llanmasiga muvofiq amalga oshirildi.

Zamonaviy tibbiyotda ko'plab qurilmalardan foydalanish shifokorlar uchun mehnat sharoitlari bir qator omillar ta'siri bilan tavsiflanadi: doimiy magnit maydon, shovqin, ish joylarida kam yorug'lik, mehnat jadalligini yuqori ekanligi. So'rov natijalariga ko'ra, shaxsiy himoya vositalari 90-95% hollarda tibbiyot xodimlari tomonidan qo'llaniladi, ammo ultratovushning uzoq muddatli tizimli ta'siri tananing yurak-qon tomir, asab va endokrin tizimlarida o'zgarishlarga olib kelishi isbotlangan. 65% shifokorlar va ultratovush bilan ishlaydigan hamshiralarning yarmidan ko'pi eshitish va vestibulyar analizatorlarda buzilishlarga uchraydi.

ISHCHI XODIMLAR SALOMATLIGIGA TA'SIR ETUVCHI FAKTORLAR SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA									
Sog'lomlik darajasi	Vrachlar			O'rta tibbiyot xodimlari			Kichik tibbiyot xodimlari		
	Uchrash /100	Ulushi %	*Yil davomida	Uchrash /100	Ulushi %	*Yil davomida	Uchrash /100	Ulushi %	*Yil davomida
Kimyoviy	4-5	12%	3	15	20%	9	22	35%	22
Biologik	20	45%	17	22	36%	27	16	25%	15
Fizikaviy	12	25%	10	18	26%	20	20	30%	18
Ijtimoiy	10	18%	8	14	18%	15	5	10%	9

Izoh: *-so'rovnomada qatnashgan xodimlar orasida faktorlar ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa

Tibbiyot xodimlari sog'lig'iga ta'sir etuvchi asosiy Kimyoviy, Biologik, Fizik va Ijtimoiy omillar bo'lib ular organizmga turlicha (yoshga, jinsga, mehnat davomiyligiga, xodimlar kategoriyasiga va boshqalar) ta'sir etadi. Shuni ta'kidlash kerakki, hatto maksimal ruxsat etilgan, salbiy mehnat omillariga yaqin darajalarda ham, ularning kombinatsiyalangan ta'siri bilan tibbiyot xodimlari organizmidagi o'zgarishlarga olib keladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Дубель Е.В. Гигиеническая оценка факторов риска здоровью медицинских работников крупного многопрофильного стационара. /Диссертация на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. 14.02.01 – гигиена, Москва-2019.
2. Ашурова М.Д., Азимова М., Хошимова А. Влияние образа жизни и промышленно — производственных факторов на состояние здоровья работающих. // Актуальные вопросы современной медицины г.Екатеринбург 2014;62-64.
3. Ашурова М.Д. Санитарно-гигиеническая оценка условий труда предприятий азотных минеральных удобрений. // Актуальные вопросы современной пульмонологии. Махачкала, 2016;56-61.
4. Махмудова Х.Т. Тишабаева Н А. Заболевания эндокринной системы актуальность и показатели заболеваемости населения города ферганы // “Актуальные проблемы диагностики и лечения внутренних болезней” 2022;(0518):245-248
5. Дудинцева Н.В. Научное обоснование мониторинга профессиональных заболеваний медицинских работников // Диссертации на соискание ученой степени кандидата медицинских наук. 14.02.03 – Общественное здоровье и здравоохранение, Москва 2015 г.
6. Ивойлов В.М., Штернис Т.А. Условия жизни, состояние здоровья и медицинская активность работающих на химических производствах / Монография. Кемерово 2006;200.
7. Сутырина О.М. Социально-гигиеническое исследование заболеваемости, образа жизни и условий труда медицинских работников крупной многопрофильной больницы, // Диссертации на соискание учёной степени кандидата медицинских наук. 14.02.03 – Общественное здоровье и здравоохранение, Москва-2015.

Qabul qilingan sana 20.04.2023